


**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY VILOYATINING  
SANOAT ISHLAB CHIQARISHI  
2024- YIL YANVAR-NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**




**Tel.: 79-223-33-29  
[www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)**

## Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

**Sanoat** – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 129 089,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,0 % ni tashkil etdi.



**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko‘mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o‘z ichiga oladi.


Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 404,6 mlrd. so‘m yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 11,9 % ga to‘g‘ri keldi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan – bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 106 243,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,3 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2023- yilning yanvar-noyabr oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 8,0 % (9,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 83,6 % (83,1 %) va quyi texnologiyalisi – 8,1 % (6,9 %)ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*)

2024- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1 167,2 ming m<sup>3</sup> Argon (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan (3,8 m.)), 533,8 ming m<sup>3</sup> Kislorod (3,0 m.), 2 339,6 ming dona Mashinada yoki qo'lida to'qilgan trikotaj futbolkalar, maykalar va boshqa ichdan kiyiladigan fufaykalar (112,2 %) ishlab chiqarilib yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	87,0	87,1	0,1
Suvsız ammiak, ming tonna.	623,2	686,0	62,8
Uglerod dioksidi, tonna.	8 302,6	9 827,3	1 524,7
Argon, ming m <sup>3</sup> .	309,0	1 167,2	858,2
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	180,9	533,8	352,9
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming tonna.	45,9	48,7	2,8
So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak, ming tonna.	86,4	262,7	176,3
Metanal (formaldegid), tonna.	1 341,0	1 643,3	302,3
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	203,3	244,4	41,1
Azot, ming m <sup>3</sup> .	104,1	180,2	76,1
Fosfinatlar, fosfonatlar, fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	458,0	516,9	58,9

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Argon ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Argon** – rangsiz va hidsiz gaz, kimyo sanoatida inert muhit vujudga keltirishda, elektr lampochkalarini to'ldirishda, reklama naylarini (ko'k-havo rang shu'lalanadi) va yuqori chastotalar texnikasida ishlataladigan naylarni to'ldirishda qo'llaniladi.


Viloyatimizda 2024- yil yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 167,2 ming m<sup>3</sup> argon ishlab chiqarildi. Argon ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,8 m. ga ko'paydi.



## Azot ishlab chiqarish (2024- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Azot** – rangsiz, hidsiz gaz bo'lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.

Viloyatimizda 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 180,2 ming m<sup>3</sup> Azot ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 173,2 % ni tashkil etgan.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Kislород ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Kislород** – rangsiz, hidsiz va ta’msiz gaz, ko’k kristall hosil qiladi. Kislород eng faol (ftordan keyin) metallmas element, yengil inert gazlardan boshqa hamma elementlar bilan kimyoviy birikmalar hosil qiladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida jami 533,8 ming m<sup>3</sup> kislород ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 m. ga oshdi.




## Superfosfatlar ishlab chiqarish

(2024- yilning yanvar-noyabr oylarida)

**Superfosfatlar** – Tabiiy fosfatlardan (apatit va fosforitdan) yoki appatit konsentratidan sulfat kislota bilan ishlab olinadi. Sanoatda bir necha xil ishlab chikariladi. Kukun (oddiy) tez ta’sir qiluvchi, deyarli mushtlanmaydigan, rezina hidi keladigan kulrangoq unsimon universal o’g’it.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida superfosfatlar ishlab chiqarishda, jami 1,4 ming tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> superfosfatlar ishlab chiqarildi, o’tgan yilning mos davriga nisbatan 81,3 % ni tashkil etdi.




\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko’ra

## Metallurgiya sanoati

**Metallurgiya sanoati** – cho'yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho'yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo'shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 79,8 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 13,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 84 832,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish** – yo'lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o'z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 91,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 555,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish** – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,9 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 3,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 4 195,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

**Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish** – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 101,6 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 751,1 mlrd. so'mni tashkil etgan.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish** – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qmachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 19,9 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 2 264,6 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



### Kiyim ishlab chiqarish

**Kiyim ishlab chiqarish** – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisabatan fizik hajm indeksi 11,5 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 1 668,0 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



## Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 7 299,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni) tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 2,0 % ga oshgan, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 97,2 % ga hamda elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar 95,3 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr	2024- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 613,0	9 804,3	191,3
Issiqlik energiyasi, ming. gkal	4 075,7	3 960,0	-115,7
Elektr energiyasini sotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	2 022,8	1 927,3	-95,5

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishslash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 142,6 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni) to'g'ri keldi.



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 2,2 m. ga oshdi hamda oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 66,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-noyabr	2024-yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	53 374,8	35 664,7	-17 710,1
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	136 132,1	111 121,6	-25 010,5
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	49 480,8	110 819,4	61 338,6

\* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra